



XALQ DEPUTATLARI DANG‘ARA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 7-aprel

VII-22-20-11-155-K/26

Dang‘ara tumani

2026-yilda Dang‘ara tumani bo‘yicha “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish to‘g‘risida

2026-yilda Dang‘ara tumani bo‘yicha “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish to‘g‘risidagi tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda Soliq inspeksiyasining murojaatiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrda “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda “Mahalliy byudjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qaroriga asosan, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Dang‘ara tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda “Mahalliy byudjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi PQ-387-sonli Qarori bilan xalq deputatlari tuman Kengashlariga “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2026-yil uchun Dang‘ara tumani hududida “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish

korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning miqdorlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (I.Usmonov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari (K.Latipov), tuman Soliq inspeksiyasi boshlig‘i (T.Arzimatov)lar mazkur qarorni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini hamda mazkur yig‘imlardan tushgan tushumlar to‘liq miqdorda tuman byudjetiga yo‘naltirilishi yuzasidan chora-tadbirlarni belgilash vazifasi yuklatilsin.

4. Xalq deputatlari Dang‘ara tumani Kengashi deputatlari “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlar bo‘yicha jamoatchilik nazorati o‘rnatish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasiga, qarorning ijrosini ta‘minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (I.Usmonov) zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror e‘lon qilingan kundan e‘tiboran uch oydan keyin kuchga kiradi.

Kengash raisi



**DADABOYEV
KAYUM
KADIROVICH**

Xalq deputatlari Dangʻara tumani
Kengashining
2026-yil 7-apreldagi
VII-22-20-11-155-K/26 -son qaroriga
1-ilova

**2026-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi
uchun yigʻimlar stavkalari**

T/r	Yigʻim turi	OʻRQ-1105-sonli Qonuni 9-ilovasiga asosan belgilangan chegaralangan stavkalar (soʻmda)	Yigʻimlarning cheklangan stavkalarini oshirish (foizda)	2026-yil uchun toʻlanadigan yigʻim miqdori “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yigʻim (soʻmda)
1	“Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yigʻim	300 000	20	360 000
2	Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yigʻim	150 000	20	180 000